



FARG'ONA –TOSHKENT MAQOM CHOLG'U TURLARI TURLI XIL XALQ CHOLG'ULARIDA IJRO ETISH AN'ANASI

Yusupov Oybek Ulug'bek o'g'li

Namangan davlat pedagogika instituti

Musiqqa ta'limi va san'at yo'nalishi magistratura 1-kurstalabasi

Annotatsiya:

Mazkur maqolada Farg'ona va Toshkent maqom cholg'u turlarini turli xil xalq cholg'ularida ijro etish an'alarining tarixi, rivoji va zamonaviy holati o'rganilgan. Ushbu maqolada Farg'ona va Toshkent mintaqalarining musiqiy merosi, maqom san'atining xususiyatlari, cholg'ularning o'ziga xosligi hamda ijro uslublari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: maqom, Farg'ona maqomi, Toshkent maqomi, xalq cholg'ulari, ijro an'analari, musiqiy meros.

Maqom san'ati Markaziy Osiyo madaniy merosining ajralmas qismi bo'lib, uning tarixi asrlar davomida shakllangan. Farg'ona va Toshkent maqomlari O'zbekiston musiqiy an'analari orasida alohida o'rin tutadi. Ushbu maqola mazkur maqom turlarining turli xalq cholg'ularida ijro etilishiga bag'ishlanadi.

Farg'ona –Toshkent maqom cholg'u turlari turli xil xalq cholg'ularida ijro etish an'anasi ham mavjud. Shuningdek, bu kuylar turli vazifalarda chalinadi. Masalan, surnay yo'llari xalq tomosha va bayramlarida, dorbozlar o'yini va to'y bazmlarida, dutor, tanbur yoki g'ijjak ijrolari "uy sharoitlari" da o'tkaziladigan turli yig'in va majlislarda namoyon bo'ladi.

Farg'ona –Toshkent maqom cholg'u kuylarining ijrochilari, odatda, kasbiy musiqachilar bo'lib, ular bu san'atni ustozlardan o'rganadilar. Shu tarzda bu san'atni bizga yetkazib bergan taniqli sozandalar qatorida Abduqodir Ismoilov (nay), Ahmadjon Umrzoqov (qo'shnay, surnay), Ashurali Yusupov(surnay), Shobarot tanburchi, Abdumutal Abdullaev (tanbur), Muhiddin hoji Najmiddinov (dutor, tanbur), Abdusoat Vahobov (dutor), Komiljon Jabborov (g'ijjak, dutor, tanbur), Maqsudxo'ja Yusupov (tanbur), Saidjon Kalonov (nay), Fahriddin Sodiqov (chang,



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th January, 2025

dutor) G'anijon Toshmatov (g'ijjak), Turg'un Alimatov (Tanbur, dator, g'ijjak, sato), G'ulomjon Hojiqulov (g'ijjak) kabi mahoratli ijrochilar nomini alohida ta'kidlash kerak.

Farg'ona –Toshkent maqom ashula yo'llari (cholg'u yo'llari kabi) alohida bo'lgan bir qismli namunalardan tortib ko'p qismli ashula turkumlarini namoyon etadi. Ayniqsa, besh qismli ashula turkumlari ko'proq uchraydi. Xususan, “Chorgoh”, “Bayot”, “Bayoti sheroziy”, “Gulyor shahnoz” singari ashula yo'llari aynan besh qismdan iborat turkumli asarlardir.

Farg'ona –Toshkent maqom ashula yo'llari o'z ijrolari bilan yuksaltirilgan maqomchi hofizlar qatorida Shorahim Shoumarov, Mulla To'ychi Toshmuhammedov, Shojalil hofiz, Ilhom hofiz, Sadirxon hofiz, Yunus Rajabiy, Rasulqori Mamadaliev, Fattohxon Mamadaliev, Orifxon Xotamov kabi ustoz san'atkorlarning xizmatlarini alohida ta'kidlash kerak.

Farg'ona –Toshkent maqom yo'llari Navoiy, Sakkokiy, Lutfiy, Bobur, Mashrab, Muqimiy va boshqa mumtoz janrlarning she'rlari asosida kuylanadi. Maqom yo'llari xalqimizning madaniy hayoti bilan bog'liq turli vaziyat va sharoitlarda, xususan, surnay yo'llari to'y – bazmlarda, xalq tomoshalari va sayllarda, dorbozlik o'yini va boshqa tantanalarda ashula yo'llari turli yig'in kechalari va kundauzgi majlislarda ijro etib kelinmoqda.

O'z kasbining mohir ustalari bo'lgan hofiz, sozanda va bastakorlar ijodi tufayli maqom dildagi niyat, amalga oshishi mumkin bo'lgan mavhum musiqiy g'oyadan kuy yoki ashulalarga aylanadi. Barhayot maqom an'analari har qanday musiqiy faoliyat kabi uchta asosiy tamoyilga tayanadi: tinglovchi, ijrochi va yaratuvchi. Ana shu uchta tamoyil negizida musiqa san'atining mushtarak jarayoni yuzaga keladi.

Og'zaki an'alar sharoitida ijro bilan ijod faoliyatining chegaralarini belgilash qiyin, chunki haqiqiy ijroning o'ziyoq ijod demakdir. Cholg'uchi yoki hofiz o'z hunarining siru asrorlarini o'zlashtirishda ma'lum bir darajaga erishgandagina ustoz degan nomga musharraf bo'ladi. Aynan shu chinakam ustoz sozandalar maqomni yuksak san'at darajasiga ko'tarishga qodirlar. Ularning ijodiy shuhrati porloq yulduzlar kabi maqom tarixini nurafshon etadi. Ana shunday yorqin yulduzlarning shu'lalari klassik musiqa merosimiz turli uslublarining cheksiz qirralarini yoritib kelmoqda.



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th January, 2025

Amaliy nuqtai nazardan ustoz — muayyan ixtisos sohasining siru asrorlarini puxta egallagan va hunar o'zlashtirishni oliy darajaga yetkazgan komil inson. Masalan, musiqada ustoz - kuy chalib, o'zidan bir narsalar qo'shib, mahoratini nafis san'at maqomiga ko'targan sozanda. San'atda yaratuvchilik iste'dodi aslida Alloh in'om etgan oliy ne'mat, albatta.

Ustoz tomonidan u muqaddas qobiliyat sifatida avaylab-asraladi. O'zlashtirilgan san'at sirlarini faqat aziz farzandlar va eng sadoqatli shogirdlar bilan baham ko'rish mumkin. Kasb hunarning sir-u asrorlarini begona qilish yoki nomaqbul shogirdlarga ravo ko'rish gunoh hisoblangan. Hunarni oyoq osti qilish esa piri-arvohlar g'azabini uyg'otadi degan e'tiqod bo'lgan. Shuning uchun ham tarixiy tajribadan ma'lum bo'ladiki, ustoz-shogird silsilasida oilaviy an'analar hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Odatda, sozandalar oilasidan yetishib chiqqan. Tashqaridan kelgan shogirdlar ishonchni oqlab, unga sadoqat bildirgandagina ustozlar ularga mehr qo'ya boshlaydi. Ana shu tariqa maqom ijrochilarining asrlar davomida shakllangan maktab uslublari zaminida yangi oqimlar paydo bo'ladi. O'z navbatida bu yangiliklar ham silsilaga aylanib maqom an'alarida vorisiylik rishtalari uzluksiz davom etib boraveradi.

Yunus Rajabiygacha ko'pgina ijrochilar tomonidan yozib olingan Shashmaqomning fonogrammalarida bu yirik turkumli asarning qismlari turlicha ko'rinishlarda edi. Yu.Rajabiy rahbarligidagi ovoz yozuvlarining o'ziga xosligi shundaki, u bizga Shashmaqomning yangicha turkumiy shaklini taqdim etdi. O'n yillik murakkab va sermashaqqat mehnat natijasida olti maqomning barcha ashula yo'llarining 24 plastinkadan iborat to'plami ham bunyod etildi. Umuman olganda, Y. Rajabiy ijodi bilan bog'liq Shashmaqomning tarixan yangicha shakli va unga mos ijrochilik maktabi vujudga keldi.

Faxriddin Sodiqov (1914-1977, Toshkent) mohir sozanda va oliyjanob ustoz. Konservatoriya ta'lim tizimidagi an'anaviy musiqaning yosh ijrochilari tarbiyasiga sidqidildan yondoshgan ulkan san'atkor. Faxriddin Sodiqov chang ijrochisi, ustoz-murabbiy, ko'pgina ashulachilarni tarbiyalagan sozanda va bastakor. Ayni paytda qator qo'shiq va ashulalar muallifi. XX asrda o'zbek an'anaviy musiqasining rivojlanish tarixida alohida o'rinlardan birini egallagan san'atkor.



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th January, 2025

F.Sodiqov musiqachi sifatida ijodini juda erta — 12 yoshlarda boshlab o'z davrining yetuk ijrochilari bilan yonma - yon ishlagan. Uning ustozlari: Abduqodir Ismoilov, No'monqori Mo'minzoda, Usta Ro'zmatxon Isaboyev, Muhiddin Hoji Najmiddinov, To'xtasin Jalilov, Yunus Rajabiy va boshqalar. Shu ustozlarning jonbozligi tufayli Faxriddin Sodiqov an'anaviy mumtoz musiqa yo'llarini mukammal egallashga harakat qildi.

Radioda "Maqom" ansamblining tashkil topishi munosabati bilan u musiqiy rahbar etib tayinlandi va Yunus Rajabiy bilan hamkorlikda ish olib bordi. Shashmaqom yozuvlarida chang sadosi o'zgaligi bilan ajralib turadi. Ansambl sozandalari qatorida u eng zabardast ijrochi bo'lib tanildi. Uning rahbarligida ansambl jamoasi Shashmaqomning ko'plab cholg'u yo'llarini magnit tasmasiga yozib olishga erishdi. Ulardan Tasnifi Buzruk, Muxammasi Nasrulloi, Muxammasi Ushshoq, Muxammasi Bayot, Tasnifi Dugoh, Samoi Dugoh, Garduni Segoh va boshqalar.

1972-yili Toshkent davlat konservatoriyasida Sharq musiqasi kafedrasining cholg'u ijrochisi bo'lib ishga taklif etiladi. Qisqa vaqt mobaynida talabalar ansambli ijrosida tayyorlangan Tarji' Buzruk 1973-yili Olma-otada bo'lib o'tgan II Xalqaro Osiyo musiqa minbarida yuqori o'rin egallashga sazovor bo'lgan. Bu ma'lumot buyuk ijrochining katgagina o'qituvchilik qobiliyatidan darak beradi. Qisqa vaqt mobaynida u o'z atrofiga qobiliyatli talabalarni jamlashga muvaffaq bo'ldi va ular hozirgi kunda maqom ijrochiligida yetakchi o'rinni egallaydi. Jumladan, Abdurahim Hamidov, O'lmas Rasulov, Shavkat Mirziyoyev.

Milliy musiqiy ijrochiligimiz uch asosiy yo'nalishda, ya'ni Xorazm-Buxoro-Farg'ona ijrochilik maktablari zamirida rivojlanganligi barchamizga ma'lum. Har bir voqea xalqining etnik joylanishi, urf-odatlar, mahalliy mentaliteti, yashash turmush tarzi zamirida o'ziga xos musiqiy ijrochilik uslublari ham mavjuddir. O'n ikki maqom asosida Shoshmaqom yaratilganligi, Shashmaqom zamirida bastakorlarimiz tomonidan bir-biridan go'zal cholg'u va ashula yo'llari yaratilganligi aniq manbalar asosida bizgacha yetib kelgan. Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari ana shunday mashhur ijrolarning mahsulidir.

"Dugox Xusayniy", "Shahnozi Gulyor", "Bayot", "Chorgox" ijrolari turkum sifatida mashhur bo'lganligi sababli "Chormaqom" (to'rt maqom) deb ham yuritiladi.



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th January, 2025

Farg'ona, Toshkent, Samarqand vohalarida, Qozog'istonning Chimkent viloyatida va boshqa shaharlarda Shashmaqom asosida turli shakllardagi cholg'u va ashula yo'llari yaratilganligi ma'lum. Shular jumlasidan mashhur cholg'u asarlar: besh qismli Nasrullovi, Munojot turkumi, Cho'li Iroq, Navoning bir necha cholg'u namunalari, Navro'zi Ajam, Ajam va uning taronalari, Ilg'or, Miskin va Adoyining besh qismli turkumi, ikki qismli Mirzadavlat, Madalibek, Beksulton, Sayqal, Suvora yo'llari, Mushkuloti Dugox va uning Ufari, Dutor Bayoti, O'yin Dugoxi, Rost Panjgox Qashqarchasi, Dilxiroj, Mushkuloti Segox va uning Ufari, patnisaki uslubda chalinadigan Dugoh, Segoh va Ushshoq namunalari Qari Navo, Surnay yo'llaridan Buzruk, Navo, Iroq, Dugox, Dugoxi Xusayniy, Nasrullovi, Chorgox, Mustahzod, Dashti Navo kabi o'nlab kuylar mahalliy bastakorlar tomonidan maqomlar asosida yaratilgan bo'lib, musiqiy madaniyatimizning bebaho durdonalari sanaladi.

Yuqorida sanab o'tilgan cholg'u yo'llari turkumli va yakka-yakka ijro etiladigan kuylardan iboratdir. Farg'ona-Toshkent maqomlarining ashula variantlari ham turkum va yakka tarzda ijro etiladigan ashulalar bo'lib, juda katta ko'rinish hosil qiladi. Turkum sifatida keladigan mashhur ijrolar quyidagilardir:

“Bayot” I, II, (II), III (III), IV, V.

“Chorgox” I, II, III (III), IV, V, VI

“Dugox Xusayniy” I,II,(II), III (tarona), IV (IV), V, VI, VII

“Shaxnozi Gulyor” I, II, III, IV, V

(Qavs ichida ko'rsatilganlari qo'shimcha variant ijrolaridir).

Ushbu turkum ijrolarga qisqacha sharh berib o'tamiz. Bayot 1-Navo maqomining Bayot sho'balari asosida yaratilgan va shu sho'bada uchraydigan avjlar va namudlar ma'lum darajada saqlanib qolgan. Bayot II Navo maqomidagi Nasri Bayotning II-III taronalari kuy tuzilishi va harakati shakli bilan bir xillik kuzatiladi.

Bayot III, IV, V kuy tuzilishi, shakli jihatdan oldingi qismlardan keskin farq qiladi. Ular Bayot I, II ijrolarining daromad boshlanish pardasidan besh parda, ya'ni Kvinta yuqoriga ko'tarib ijro etiladi. Lekin ijro tugashida yana daromad pardaga qaytiladi. Shu bilan Bayot turkumining to'liq ijrosi aniq boshlanish va tugallanish pardasiga ega bo'ladi.



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th January, 2025

Yana bir mashhur ijro turkumi bo'lgan Chorgoh esa Dugoh maqomidagi Saraxbori Dugoh, Talqini Chorgoh, Nasri Chorgoh, Savti Chorgoh sho'balari asosida yaratilgan. Chorgoh 1 da Saraxbori Dugohning doira usuli, ashula ijrosi, she'r o'lchovi va tushirish qismlari Savti Chorgoh shaxobchalarining ma'lum ko'rinishidir. Chorgoh III ning ashula ijro yo'li Savti Chorgohga hamohangdir. Chorgohning IV, V, VI shaxobchalari xar xil doira usuli bilan ijro etiladigan bir xil ko'rinishlardir.

Farg'ona - Toshkent maqom yo'llaridan biri Dugoh Xusayniy turkumi, Shashmaqomdagi Xusayniy Dugoh asosida yaratilgan bo'lib, keyingi sho'balardan va taronalaridan foydalanilgan. Dugoh Xusayniyning I-qismi Saraxbor, ikkinchi qismi Savti, keyingilari Qashqarcha usullarida ijro etiladi va Ufar, Suporish bilan tugallanadi. Dugoh Xusayniyning hamma shaxobchalari xalq orasida keng tarqalgan.

Farg'ona-Toshkent ijrochilik yo'llarida "Shahnozi-Gulyor" ashulalar turkumi ham juda mashhurdir. "Shahnozi Gulyor" Rost maqomi ashula yo'llari asosida yaratilgan bo'lib, birinchisi Gulyor, ikkinchisi Shahnoz, uchinchisi Chapandozi Gulyor, to'rtinchisi Ushshoq, beshinchisi Qashqarcha Ushshoq nomlari bilan mashhurdir. Birinchi Gulyor Saraxbor usulida, Shahnoz - tarona usulda, uchinchisi - Chapandoz, to'rtinchisi - Saraxbor, beshinchisi - Qashqarcha doyra usullarida ijro etiladi.

"Shahnozi Gulyor" o'z tuzilishi jihatdan Bayot, Chorgoh, Dugohi Xusayniy turkumlaridan tubdan farq qiladi. Farg'ona - Toshkent maqom yo'llarida yana bir mashhur ijrolardan biri Rost maqomi sho'balari asosida yaratilgan Ushshoq turkumlaridir. Ushshoqning besh xil yo'li bo'lib, har biri alohida yakka ashula sifatida ijro etiladi. Ularning kuy tuzilishi, ohangi bir xil bo'lsada, shaklan sal bir-biridan farqi bilan ajralib turadi. Ushshoq ijrolarida Uzzol sho'basining ohanglari daromadga, namudlari avjlarida ishlatilgan. Ushshoq ijrolarining birinchisi qolganlaridan besh parda yoki kvinta ko'tarilib ijro etilishi bilan farqlanadi. So'nggi qatordan daromadga tushiladi va daromad pardadan keyingi Ushshoqlar boshlanadi. Ubaydiy g'azali bilan aytiladigan Ushshoq Farg'ona vodiysi va Toshkentda mashhur bo'lgan. Farg'ona-Toshkent ijrochiligida quyidagi turkum ijrolari ham mashhurdir.



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th January, 2025

Buzruk maqomi sho'balari bilan hamohang Abduraxmonbegi va uning Ufori, marg'ilonlik Madali hofiz tomonidan 7 ta ijrogacha to'ldirilgan bo'lib, Farg'ona vodiysida "Madalibegi" deb ham yuritilgan.

Abduraxmonbegi I,II, III,IV,V,VI, VII ijrolari aksariyati o'sha davrda zamondosh bo'lgan Muqimiy g'azallari bilan aytiladi.

Rost maqomining "Savti Kalon" sho'ba shaxobchalari asosida yaratilgan Qalandar I-II ashulasi xam to'ldirilib, Qalandar I,II,III,IV,V tarzida ijro etiladi.

Yana bir el sevgan mashhur ijrolardan «Tanovar» turkumidir. Hozirda tanovorning 13 ta ijrochilik yo'llari mavjud bo'lib, 9 ta ashula - yalla yo'li, 4 ta musiqiy yo'li bilan jilolanadi. Bulardan to'rtichisi dutor tanovari deb yuritiladi.

Xulosa

Tadqiqot natijasida Farg'ona va Toshkent maqom cholg'u turlarining ijrosida xalq cholg'ularidan foydalanishning zamonaviy an'analarga ta'siri aniqlangan. Kelgusida maqom san'ati bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni davom ettirish hamda musiqiy merosni xalqaro miqyosda targ'ib qilish taklif etiladi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbek musiqiy san'atida Farg'ona-Toshkent ijrochilik maktabi alohida o'rin tutadi. Bu maktabning musiqiy va ashula ijrochiligi aniq uslubga, doyra usuliga, musiqiy tuzilmasiga egadir. Bu an'ana davom etmoqda va hozirda ham xalq bastakorlari ijodlarining samarasi bilan Farg'ona-Toshkent ijrochilik yo'llari boyib bormoqda. Ushbu ijroni amalga oshiradigan sozanda va hofizlar ham yetishib chiqmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Fitrat, A. "O'zbek maqomi tarixi." Toshkent: Fan, 1930.
2. Sodiqov, T. "Maqom san'ati va uning ijro an'analari." Samarqand: Sharq nashriyoti, 1985.
3. Gaziyeu, J. J. (2024). NAMANGAN VILOYATI TARIXI VA MADANIYATI DAVLAT MUZEYI. Inter education & global study, (5 (1)), 456-465.
4. Joraxanovich, G. J. (2023). PSYCHOLOGICAL FACTORS OF MUSICAL EDUCATION. Open Access Repository, 9(11), 8-10.



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th January, 2025

5. Собиров, Ю. Б. (2021). МЕТОДЫ ИЗМЕРЕНИЯ КОЭФФИЦИЕНТОВ ОТРАЖЕНИЯ ЗЕРКАЛ И КОЭФФИЦИЕНТОВ ПРОПУСКАНИЯ СТЕКОЛ. *Universum: технические науки*, (10-5 (91)), 5-12.
6. Gaziyeu, J. J. (2021). VOCAL MUSIC OF UZBEK COMPOSERS. In *WORLD SCIENCE: PROBLEMS AND INNOVATIONS* (pp. 260-262).
7. Gaziyeu, J. J. (2021). STYLISTIC FEATURES OF THE WORK OF FRANZ JOSEPH HAYDN. In *АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ СОВРЕМЕННОЙ НАУКИ И ОБРАЗОВАНИЯ* (pp. 215-217).
8. Ахадов, Ж. З., & Абдурахманов, А. А. (2017). Теплоэнергетические параметры и балансовое распределение энергии парового котла солнечных высокотемпературных установок. *Computational nanotechnology*, (1), 71-74.
9. JURAKHONOVICH, G. J., & KARIMBERDIEVICH, R. K. Renewing the System of the Country and the Role and Significance of Art and Culture in Today's New Level of Modernization in Our Life. *JournalNX*, 6(05), 7-9.
10. Шашнева, Е. Н., & Газакова, С. (2021). ОБРАЗОВАНИЕ В КУЛЬТУРЕ ТУРКМЕНИСТАНА. Печатается по решению редакционно-издательского совета Шуйского филиала ФГБОУ ВО «Ивановский государственный университет», 266.
11. Akhmedov, B. (2023). THE FIRST FORMATION PROCESSES OF UZBEK VOCAL PERFORMANCE. *Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования*, 2(8), 126-128.
12. Syfiddinovich, A. B. (2024). MUSIQA CHOLG 'ULARINING ILK SHAKL VA TURLARI. *JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH*, 7(2), 92-96.
13. Sayfiddinovich, A. B. (2023). AESTHETIC EDUCATION TO STUDENTS IN MUSIC CLASSES OF GENERAL SECONDARY SCHOOLS.
14. Rakhimov, I. B. (2024). WAYS TO CREATE AND USE INTERNET RESOURCES IN GEOGRAPHY LESSONS. *Экономика и социум*, (2-1 (117)), 595-599.
15. Rakhimov, I. B. (2024). METHODS FOR DETERMINING THE IMPACT OF LOCAL ENVIRONMENTAL PROBLEMS ON HUMAN



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th January, 2025

-
- HEALTH. MODERN PROBLEMS AND PROSPECTS FOR ORGANIZING A HEALTHY LIFESTYLE AND PROPER NUTRITION, 1(01).
16. Ikhtiyor, R. (2024). Using the Kahoot Education Platform to Create E-Learning Resources in Geography Education. *Journal of New Century Innovations*, 67(4), 19-23.
 17. Baxtiyor o'g'li, R. I. (2023). UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA GEOGRAFIYANI O'QITISHNING ZAMONAVIY TA'LIM VOSITALARIDAN FOYDALANISH.
 18. Абдурахмонов, Б. М. (2023). УЧЕБНО-ПРАКТИЧЕСКИЕ КЛУБЫ КАК МЕТОДИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ РЕАЛИЗАЦИИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНО-ВОСПИТАТЕЛЬНОГО ПОТЕНЦИАЛА В ВУЗАХ (ИЗ ОПЫТА КЛУБА "ГЕОГРАФ-ИССЛЕДОВАТЕЛЬ"). In *Современное географическое образование: проблемы и перспективы развития* (pp. 384-389).
 19. Abduraxmonov, B. M. (2023). TABIIY GEOGRAFIYA DARSLARI UCHUN KARTOGRAFIK KATALOG YARATISH. *Research and education*, 2(5), 319-325.
 20. Суслов, В. Г., & Абдурахмонов, Б. М. (2020). Построение урока географии на основе деятельностного подхода. *География и экология в школе XXI века*, (2), 39-42.
 21. Акабоев, И. З., Хакимов, М. М., & Турдалиев, И. Э. (2023). ЗНАЧЕНИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ КАРТ В ОХРАНЕ ПРИРОДЫ И ОКРУЖАЮЩЕЙ СРЕДЫ. *Экономика и социум*, (6-1 (109)), 593-598.